



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK VAZIYATNING HOLATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ro'ziyev Alisher Ibroimovich

(Ro'ziyev Alisher Ibroimovich) alisherruziev1986@mail.ru

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Toshkent shahar Chilonzor tumani Gavhar ko'chasi 1-uy


<https://doi.org/10.5281/zenodo.14801586>

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasida demografik vaziyat, hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni.

Annotatsiya: Hududlardagi mavjud demografik vaziyat va aholi takror ishlab chiqarishning mavjud turlari demografik jarayonlarni ilmiy asoslangan boshqarish maqsadida ularning ijtimoiy-iqtisodiy shartlilikini eng batafsil o'rganishni taqozo etadi..

KIRISH

Har qanday mamlakatda–siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar demografik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib, barcha davlatlardagi jamiyat hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan demografik jarayonlarni tadqiq qilishda ularning statistik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va tizimlashtirish asosida mamlakatda to'g'ri demografik siyosat olib borishni hamda demografik prognozlashtirish imkoniga ega bo'lishimiz mumkin bo'ladi. (1-rasm).



1-rasm. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi integral ko'rsatkichlar¹.

Aholining muhim tavsifnomasi bo'lib, uning jinsiy strukturasi hisoblanadi. Aholi jinslari bo'yicha erkak va ayollarga bo'linadi. Ikkalasi o'rtasidagi solishtirish ma'lumotlari jinslar bo'yicha tarkibi deb ataladi va u 2 xil usul bilan aniqlanadi:

- 1.Jami aholiga nisbatan ayol va erkaklar miqdorining salmog'i, foizda.
- 2.Har 1000 nafar ayollarga to'g'ri keladigan erkaklar soni va aksincha (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni dinamikasi
(vil boshiga)²


Yillar	Jami aholi soni, ming kishi	Shu jumladan					
		Ayollar		Erkaklar		Shahar aholisi, %	Qishloq aholisi, %
		Ming kishi	%	Ming kishi	%		
A	1	2	3	4	5	6	7
2010	28001,4	13986,4	49,9	14015,0	50,1	51,5	48,5
2011	29123,4	14555,0	50,0	14568,4	50,0	53,4	46,6
2012	29555,4	14762,9	49,9	14792,5	50,1	51,2	48,8
2013	29993,5	14974,8	49,9	15018,7	50,1	51,2	48,8
2014	30492,8	15215,3	49,9	15277,5	50,1	51,0	49,0
2015	31022,5	15470,3	49,9	15552,2	50,1	50,8	49,2
2016	31575,3	15736,4	49,8	15838,9	50,2	50,6	49,4
2017	32126,5	15999,5	49,8	16121,0	50,2	50,6	49,4
2018	32656,7	16258,8	49,8	16397,9	50,2	50,6	49,4
2019	33255,5	16544,9	49,8	16710,6	50,2	50,5	49,5
2020	33905,2	16859,9	49,7	17045,3	50,3	50,6	49,4
2021	34558,9	17180,5	49,7	17378,4	50,3	50,7	49,3
2022	35271,3	17527,1	49,7	17744,2	50,3	50,9	49,1
2023	36024,9	17896,3	49,7	18128,6	50,3	51,0	49,0
2024	36799,8	18274,8	49,7	18525,0	50,3	51,0	49,0
2024 yil 2010 yilga nisbatan, %	131,4	130,7	x	132,2	x	130,1	132,8

2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 799,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18 525,0 ming kishini yoki jami aholi sonida erkaklar salmog'i 50,3 foizni, ayollar soni 18 274,8 ming



kishini yoki jami aholi sonida ayollar salmog'i 49,7 foizni tashkil etgan. Jami aholi sonida shahar aholisi soni 18 768,5 ming kishini yoki 51,0 foizni, qishloq aholisi soni 18031,3 ming kishini yoki 49,0 foizni tashkil etdi.


O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi sonida erkaklar soni 0-2 dan 30-34 yoshgacha bo'lgan oraliqda ko'pchilikni tashkil etsa, 60-64 yoshdan boshlab esa ayollar soni ko'pchilikni tashkil etadi. 70 yoshdan yuqori yoshda ushbu tafovut 50,13 foizga oshgan.



2-rasm. O'zbekistonda aholining yosh – jins tarkibi (2024 yil 1 yanvar xolatiga, ming kishi)³

Hududlardagi mavjud demografik vaziyat va aholi takror ishlab chiqarishning mavjud turlari demografik jarayonlarni ilmiy asoslangan boshqarish maqsadida ularning ijtimoiy-iqtisodiy shartlilikini eng batafsil o'rganishni taqozo etadi. Hududlarning demografik rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tug'ilish va o'lim kabi jarayonlar iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi ta'sirida o'zgaradi va shu bilan birga ularning o'zi ham iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

Aholi ko'payishi bilan bir yo'la uning zichligi ham oshib bormoqda: 1940 yilda har kv.km ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1991 yilda 46,3 kishi, 2001 yilda 55,4 kishi, 2011 yilda 64,9 kishi, 2021 yilda 77,0 kishi, 2023 yilda bu ko'rsatkich 80,2 kishini tashkil etgan (1940 yilga nisbatan 5,5 baravar oshgan). Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shahri aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi, vaholangki, ular O'zbekiston hududining atiga choragini, aholi uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa respublika hududining qolgan to'rt dan uch qismini egallagan



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi zichligi, 2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi³

2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, aholining eng zich joylashgan hududlari sifatida 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni Andijon (789,4 kishi), Farg'ona (600,8 kishi), Namangan (412,1), Xorazm (329,9 kishi),



Samarqand (251,1 kishi) viloyatlari va Toshkent shahri (6787,5) hissasiga, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati 9,7 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12,0 kishini tashkil etgan. Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarga aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholi, tug'ilgan bolalar va aholi tabiiy ko'payishining beshdan to'rt qismi, yalpi ichki mahsulotning 74,0 foizi, investitsiyalarning 79,0 foizi va iste'mol xarajatlarining 88,0 foizi to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni yeng ko'p Samarqand viloyatida 4208,5 ming kishi, Farg'ona viloyatida 4061,5 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 3 560,6 ming kishi, yeng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida 914,0 ming kishi, Navoiy viloyatida 1 075,3 ming kishi va Jizzax viloyatida 1507,4 ming kishini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha 82,0 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,8 kishiga ortgan (2023-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga 80,2 kishi).

Yillar	Aholi zichligi	Prognoz	Bog'lanish ehtimoli quyi chegarasi	Bog'lanish ehtimoli yuqori chegarasi
2011	64,9			
2012	65,8			
2013	66,8			
2014	67,9			
2015	69,1			
2016	70,3			
2017	71,5			
2018	72,7			
2019	74,1			
2020	75,5			
2021	77,7			
2022	78,5			
2023	80,2			
2024	82,0	82,0	82,0	82,0
2025	83,8	83,8	82,8	84,7
2026	85,6	85,6	83,5	87,6
2027	87,3	87,3	84,0	90,7
2028	89,1	89,1	84,3	93,9

4-rasm. Aholi zichligi dinamikasi 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi⁶

Doimiy aholi sonining eng ko'p ulushi Samarqand viloyatida 11,4 foiz, Farg'ona viloyatida 11,0 foiz, Qashqadaryo viloyatida 9,7 foiz, Andijon viloyatida 9,2 foiz va Namangan viloyatida 8,3 foizni tashkil etgan.

Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida 2,5 foiz, Navoiy viloyatida 2,9 foiz, Jizzax viloyatida 4,1 foiz, Xorazm viloyatida 5,4 foiz va Qoraqalpog'iston Respublikasida sa 5,4 foizni tashkil etgan.

Mintaqalar bo'yicha keyingi 14 yil ichida Eng yuqori o'sish sur'ati Surxandaryo viloyatida 138,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent viloyatida 118,0 foizga teng bo'lgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda jamiyatni rivojlantirishda urbanizatsiya darajasining ortishi bilan bog'liq shahar rolining kengayishi jarayoni muhim ahamiyatga ega. Shaharlarda sanoatning rivojlanishi, ularning siyosiy va madaniy funksiyalarining kengayishi, hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi ana shu jarayon xususiyatlaridir.

Adabiyotlar

1. Buxoro Davlat Universiteti Abdullaev A.J, Qayimova Z.A, Boltaev Sh.Sh, Narzieva D.M, Pul va banklar o'quv qo'llanmasi